

PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA IJTIMOIY TADQIQOTLAR

Onlayn ilmiy jurnal

Mudarris
SLM HURZ



Jild: 03 Nashr: 11 (2024)

www.mudarrisziyo.uz

ISSN: 2992-8931



IQTISODIY SUDLARDA PROKUROR VAKOLATINI TA'MINLASH FAOLIYATI YANADA TAKOMILLASHTIRILDI

I. Yusupov

Toshkent shahar sudining iqtisodiy ishlar bo'yicha sudyasi

A. Paygamov

Toshkent viloyat sudining iqtisodiy ishlar bo'yicha sudyasi

A. Xaitboyev

Quyichirchiq tumanlararo iqtisodiy sudining raisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Said Ahmadning hajviy hikoyalari va ularda qo'llanilgan metaforalar hamda ularning turlari haqida fikr-mulohazalar bayon qilingan bo'lib, fikrlarni dalillash uchun yozuvchi "Lab haqida doston", "Ming yillik janjal", "Oftobga chiqqan mushuk", "Yur, yuvamiz" kabi hajviy hikoyalari tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: Said Ahmad, hajviy hikoya, metafora, metafora turlari, shakliy o'xshashlik, belgi o'xshashligi, harakat o'xshashligi, o'rin-payt o'xshashligi.

So'ngi yillarda mamlakatimizda sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish, fuqaro va tadbirkorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish choralarini kuchaytirish, odil sudlovni samarali ta'minlash bo'yicha qator choralar ko'rildi.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida odil sudlov jarayonida fuqaro va tadbirkorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish darajasi yangi bosqichga olib chiqdi.

Huquqni qo'llash amaliyotini tahlil qilish natijalariga ko'ra, sud ishlarini yuritish jarayoniga yangi institutlar joriy etildi, fuqarolar va tadbirkorlik sub'yektlarining huquqlari ishonchli himoya qilinishini ta'minlash maqsadida yarashuv, dastlabki eshituv, mediatsiya, shuningdek sud qarorlarining qonuniyligi, asosliligi va adolatliliginи tekshirish kabi institutlar takomillashtirildi.

Yurtimizda sud-huquq islohotlari jadallik bilan olib borilar ekan, mazkur islohotlar bevosita prokuratura organlarining faoliyatida davlat manfaatlari, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash va himoya qilish bilan uzviy bog'liqdir.

Keyingi yillarda milliy qonunchilikka prokuratura organlari faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirish, prokuratura organlarining mas'uliyati va vakolatini yanada mustahkamlashga qaratilgan bir qator o'zgarishlar kiritildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2024 yil 30 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalari" suda ishlarni ko'rishda prokurorning vakolatlarini

ta'minlashga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-968-sonli Qonun¹ imzolandi.

Mazkur Qonunga bilan O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy prosessual kodeksiga prokurorning yerga oid huquqiy munosabatlar, davlat mulki bilan bog'liq ishlarda, atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilikni buzish, davlat byudjetidan undiruvlar, o'zboshimchalik bilan qurilgan imoratga bo'lgan mulk huquqini e'tirof etish, xususiy mulk sifatida egalik qilish va undan foydalanish faktini aniqlash, bojxona to'lovlarini undirish bilan bog'liq ishlarda ishtirok etishini nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritildi.

Ta'kidlash lozimki, oldin qonunchilikda sudda iqtisodiy ishlarni ko'rishda prokurorlar davlat manfaatlariga oid qaysi toifadagi ishlar ko'rili shida ishtirok etishi aniq belgilanmaganligi amaliyotda sud muhokamalarida prokuror ishtirokini ta'minlashda muammolarni keltirib chiqargan.

O'z o'rnida, qonunchilikdagi mazkur bo'shliq va nomutanosibliklar bartaraf etilib, endilikda ushbu qonun bilan sudlarda davlat manfaatiga oid aynan qaysi ishlarning ko'rili shida prokuror ishtirok etishi aniq belgilandi.

Shuningdek, prokurorning ishtirok etishi nazarda tutilgan ishlar bo'yicha prokuror sud majlisi vaqt va joyi to'g'risida belgilangan tartibda xabardor etilmagan bo'lsa, prokuror ushbu ishlarni suddan talab qilib olib o'rganishi hamda ular bo'yicha protest keltirishi mumkinligi belgilandi.

Qayd etish joizki, Qonunning qabul qilinishi prokuratura organlarining odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashish borasidagi faoliyati samaradorligini yanada oshirishga, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, jamiyat hamda davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini to'laqonli himoya qilishga, shuningdek sudlarda ishlarni muhokama qilishda qonuniylikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalariiga sudlarda ishlarni ko'rishda prokurorning vakolatlarini ta'minlashga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-968-sonli Qonuni;
2. O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy prosessual kodeksi.

¹ www.lex.uz "Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига судларда ишларни кўришида прокурорнинг ваколатларини таъминлашига қаратилган ўзгартириши ва қўшимчалар киритиш түг'рисида"ги ЎРК-968-сонли Қонун